

2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


*Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaoshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishva rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 18834 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,5 % ga o'sdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	16031	18834	117,5	100,0
shundan:				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1980	2163	109,2	11,5
Sanoat	1846	2365	128,1	12,6
Qurilish	1740	2179	125,2	11,6
Savdo	3283	4308	131,2	22,9
Tashish va saqlash	775	852	109,9	4,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	933	1171	125,5	6,2
Axborot va aloqa	309	329	106,5	1,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	297	367	123,6	1,9
Boshqa turlari	4868	5100	104,8	27,1

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 18404 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2814 taga (18,1 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2321 ta yoki 12,6 %), savdo (4203 ta yoki 22,8 %), qurilish (2148 ta yoki 11,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (2078 ta yoki 11,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1139 ta yoki 6,2 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (315 ta yoki 1,7 %), sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (363 ta yoki 2,0 %) hamda tashishva saqlashda (832 ta yoki 4,5 %) tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyligi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

2020-yil 1-yanvar holatiga 14750 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3119 ta, oilaviy korxonalar - 1013 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10329 ta, unitary korhonalar - 117 ta, aksiyador korxonalar - 27 ta va boshqalar 145 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3858 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1222 taga ko'pdir.

Yanvar-dekabr aylarinda janadan tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdova sanoat hamda qurilish, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2019yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi,% (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarijamiga nisbatan ulushi, %

01.01.2019 yil




01.01.2020 yil




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni, birlikda


01.01.2019




01.01.2020




Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda (2020-yil 1-yanvar holatiga)



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar,
birlikda**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



**Sog`lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida
ma'lumotlar, birlikda**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarva tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



**Jami ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining
tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro`yxatdan o`tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 10559 tani tashkil etib, ulardan 10329tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2094 taga yoki 25,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 2701 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 968 taga ko'pdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr oylarida
	Ro`yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	10559	10329	2701
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1586	1529	307
Sanoat	1464	1546	492
Qurilish	1906	1880	495
Savdo	2798	2743	903
Tashish va saqlash	751	736	109
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	567	554	135
Axborot va aloqa	189	183	53
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	180	179	46
Boshqa turlari	1118	979	161


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yoki 4187 tasi (28,5 %) - savdo, 2294 tasi (15,6 %) - sanoat, 2138 tasi (14,6 %) - qurilish, 2025 tasi (13,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, kamlari esa 263tasi (1,8 %) -sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 277 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi hamda 827 tasi (5,6 %) -tashish va saqlashhissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdoda (1297 ta), sanoatda (741 ta), qurilishda (536 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (358 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (54 ta), axborot va aloqada (68 ta) hamda tashish va saqlashda (126 ta) tashkil etilgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 155 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 28,1 % ga o'sgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %




2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,4 % yoki 75 tasi sanoat, 25,2 % yoki 39 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,5 % yoki 21 tasi savdo, 3,9 % yoki 6 tasi qurilish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 3 tadan yoki 1,9 %, tashish va saqlashda 1,3 % yoki 2 ta hamda 3,9 % yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**




Xitoy Xalq Respublikasirezidentlari kapitali ishtirokida - 16 ta, Qozog'iston Respublikasi - 7 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 5 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, Turkmaniston Respublikasi - 2 ta, Britaniyaning virginiya orollari – 2 ta, Turkiya Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi, Gruzya Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5694 ta), To'rtko'l (1860 ta), Beruniy (1551 ta), Amudaryo (1328 ta) va Ellikqala (1164 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shumanay (466 ta), Mo'ynoq (417 ta) hamda Taxtako'pir (332 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (1122 ta), To'rtko'l (389 ta), Beruniy(279 ta), Amudaryo (260 ta), Qo'ng'iroq (247 ta), Ellikqala (229 ta), Xo'jayli (193 ta), Nukus (165 ta) va Mo'ynoq (155 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (65 ta), Qanliko'l (96 ta), hamda Shumanay (108 ta) tumanlari past darajani aks ettirgan.

**Hududlar kesimida oilalar vafaoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Oilalar Soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019 yil	01.01.2020 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	402427	12058	14750
Amudaryo	44456	852	1029
Beruniy	41825	1025	1255
Bo'zatov			19
Qoroq'ozak	9758	334	432
Kegeyli	17897	304	399
Qo'ng'iroq	27545	646	763
Qanliko'l	9710	268	353
Mo'ynoq	5840	186	324
Nukus	11795	528	675
Taxiatosh	15583	326	424
Taxtako'pir	7834	174	219
To'rko'l	51528	1264	1604
Xo'jayli	28390	552	683
Chimboy	21168	387	489
Shumanay	8942	250	339
Ellikqala	33258	759	911
Nukus sh	66898	4203	4832

*) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14677 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich otgan yilning su davriga nisbatan 22,5 % ga o'sgan.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxona	Mikrofirmalar
Qoraqalpogiston Respublikasi	14677	891	13786
Amudaryo	1022	47	975
Beruniy	1252	57	1195
Bo'zatov	19	1	18
Qorao'zak	432	25	407
Kegeyli	396	20	376
Qo'ng'irot	757	53	704
Qanliko'l	352	19	333
Mo'ynoq	324	16	308
Nukus	674	26	648
Taxiatosh	418	31	387
Taxtako'pir	216	17	199
To'rtko'l	1599	94	1505
Xo'jayli	678	53	625
Chimboy	485	28	457
Shumanay	339	9	330
Ellikqala	909	43	866
Nukus sh	4805	352	4453

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4805 tasi (32,7 %) Nukus shahri, 1599 tasi (11,0 %) To'rtko'l, 1252 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 1022 tasi (7,0 %) Amudaryotumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalarning hududlar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 3645 tani tashkil qilib o'tganjilning shu davriga nisbatan 2,0 baravarga oshdi. Asosiy qismi Nukus shahri (1058 ta), To'rtko'l (371 ta), Amudaryo va Beruniy tumanlari (251 tadan), Qo'ng'iroq (230 ta), Ellikqala (215 ta), Xo'jayli (190 ta), Nukus(159 ta), Mo'ynoq (150 ta) va Chimboy (146 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (62 ta), Qanliko'l (93 ta), Shumanay (105 ta) hamda Qorao'zak (109 ta)tumanlar ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 1043 tani tashkil etib, ulardan 1013 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko`rsatadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatanolganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 53,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot, birlikda


	01.01.2020 y.		2019 yil yanvar-dekabr
	Ro`yxatdan o'tgan	Faoliyat ko`rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1043	1013	381
Amudaryo	234	225	96
Beruniy	69	67	16
Qorao'zak	7	7	1
Kegeyli	14	13	10
Qo'ng'iroq	46	45	12
Qanliko'l	42	41	28
Mo'ynoq	11	11	8
Nukus	42	41	15
Taxiatosh	50	46	33
Taxtako'pir	22	22	8
To'rtko'l	139	134	37
Xo'jayli	68	64	17
Chimboy	11	11	5
Shumanay	9	9	3
Ellikkala	87	86	25
Nukus sh	192	191	67

Faoliyat ko'rsatatyotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni, birlikda



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 381 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paygan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangidan oshilgan oilaviy korxonalar soni, birlikta



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	155	87	68
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	11	4	7
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	9	6	3
Qo'ng'iroq	6	4	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	24	19	5
Nukus	9	7	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	5	3	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	1	4
Ellikqala	5	3	2
Nukus sh.	34	11	17

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingankorxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).



Faoliyat ko'rsatayotgankorxona va tashkilotlar- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgankorxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarningyagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Qoqaqlapogizton Respublikasi statistika boshqarmasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi.
Tel.:71-230-82-23(24)**